**Kalit so'zlar:** Shariat, odat, Qur'on, oila, nikoh, musulmon, ajralish, Turkiston, FHDYo, Chor Rossiyasi, qozi, qalin, aholi demografiyasi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI3Y2024N01

**Kirish.** V.I. Boshko, A.X. Rasulev, M.G. Vahobov, T. Ayubov, M.K. Karaxanov, A. Belyakova, Ye.M. Vorojeykin, F. Ataxodjayev, M. Bosanas, S. Burova kabi mualliflar oʻrganilayotgan mavzu doirasida huquqiy nuqtai nazardan sobiq Ittifoqda, xususan, Oʻzbekiston SSRda oila va nikoh munosabatlarining asoslari, huquqiy jihatdan oilani mustahkamlash va boshqa masalalarga e'tibor qaratganlar. Biroq bevosita FHDYo organlari, ularning faoliyati bilan bogʻliq masalalar toʻliq yoritilmagan.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Koʻplab tadqiqotlarda Oʻrta Osiyoda uzoq davr mobaynida katta patriaxal oilalar (oilaning eng dastlabki tarixiy shakli)da 30 dan 45 kishigacha boʻlganligi haqida maʼlumotlar keltiriladi. Bunday oilalarda oila boshligʻi hisoblangan ota bilan birga uning oilasi oʻgʻil farzandlari, ularning farzandlari, qizlari, ayrim hollarda oila boshligʻining aka-uka va opa-singillari ham yashagan.

Yarim koʻchmanchi oʻzbeklarning turmush tarzini oʻrgangan A.D. Grebenkin ham shunga oʻxshash maʼlumotlarni keltiradi. Bundan tashqari G.P. Snesarevning Xorazm halqlari xayoti haqida keltirgan tadqiqotlarida bir nechta katta oilalar birlashib yashaganliklari haqida koʼplab maʼlumotlar keltiradi.

**Natijalar va muhokama.** Yurtimizda azaldan oila va nikoh munosabatlariga katta eʼtibor bilan qaralgan va hozirgacha ajdodlarimiz va ota bobolarimiz tomonidan nikohning qanchalik muqaddasligini, er va xotin oʻrtasidagi ajralishlarning oldini olish va oilani qanday boʻlmasin saqlab qolishga uringanlar. Oʻzbek xalqi qadimiy xalqlardan sanaladi. Oʻzbek xalqining vujudga kelishi, rivojlanishi, ularning oilaviy munosabatlari, demografiyasi masalalarini oʻrganish koʻp tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan dolzarb masalalardan biri sanaladi. Aholishunoslik, aholi sonining oʻsishi, tugʻilish, oʻlim holatlarini qayd etish, aholi tarkibi, yosh jihatlarini oʻrganish masalalarida qadimgi davrga oid manbalar, statistik koʻrsatgichlar amalda mavjud emas. Shu nuqtai nazardan bu davrda yashagan aholining fuqarolik holatlarini statistik tahlil qilish imkoniyatlari amalda nolga teng hisoblanadi. Koʻplab tadqiqotlarda Oʻrta Osiyoda uzoq davr mobaynida katta patriaxal oilalar (oilaning eng dastlabki tarixiy shakli)da 30 dan 45 kishigacha boʻlganligi haqida maʼlumotlar keltiriladi. Bunday oilalarda oila boshligʻi hisoblangan ota bilan birga uning oilasi oʻgʻil farzandlari, ularning farzandlari, qizlari, ayrim hollarda oila boshligʻining aka-uka va opa-singillari ham yashagan.[1;67]

Yarim koʻchmanchi oʻzbeklarning turmush tarzini oʻrgangan A.D. Grebenkin ham shunga oʻxshash maʼlumotlarni keltiradi. Baʼzi oʻzbek oilalarida oila qurgan oʻgʻillarini ajratish odat tusiga kirgan boʻlsa, boshqalarida esa, aksincha, ular otasi bilan bitta oʻchoq atrofida uzoq vaqt yashashgan, oilada 10 tagacha turmush qurgan va oʻz bolalariga ega oʻgʻillar birga yashagan oilalar boʻlgan.[2;62] Ana shunday katta oilalar hamda qishloq yoki shaharlarda yashovchi aholi soniga qarab soliq toʻlovchilarni aniqlashgan. Shu asosda aholini taxminiy soni mamlakat boʻyicha aniqlangan. Chunki, har bir qishloq yoki ovul oqsoqollarida bunday roʻyxat mavjud boʻlgan, shaharlarda esa mahalla oqsoqollari roʻyxatni yuritishgan.

Shariat va odat boʻyicha nikoh, uning mohiyati, nikoh tuzish, ajralishning oʻziga xos xususiyatlari va qonun aralashuvining ilmiy asoslangan mezonini belgilashga harakat qilindi. Aynan yurtimizda fuqarolik holatlarini qayd etuvchi organlarning tashkil topishi bilan bogʻliqligi islom dini qoidalari bilan davlat huquqiy normalari bilan mujassamlashganligidan koʻrishimiz mumkin. Musulmon olamida nikoh ijtimoiy institut sifatida oʻziga xos xususiyatga ega boʻlib, unda koʻrsatilishicha, nikohsiz yashash mumkin emasligi qayd etiladi. Endi oila va

nikohni qayd etishga oid yangi qonunda ham nikohga qonuniy tus berilishi, shartlari va nikoh yoshi xususida barcha qoidalar keltiriladi.

Shu bilan birga, butun aholi shariat me’yorlari va qoidalarining mazmuni toʻgʻrisida xabardor emas edilar, ular ba’zan shariat me’yorlariga zid boʻlgan ogʻzaki qoidalardan (odotlardan) koʻproq oʻzlashtirganlar. Masalan, Oʻrta Osiyoning koʻplab xalqlari orasida odatga koʻra, uning ukasi marhum akasining xotiniga uylanishi kerak edi, ammo shariatga koʻra bunday qoidalar yoʻq.

Ajralish paytida er sabablarni koʻrsatgan (xotinning nomaqbul xatti-harakati, uy-roʻzgʻorni boshqara olmaslik, farzand tugʻish va tarbiyalashga qodir emasligi, turmush oʻrtogʻining ota-onasiga nisbatan hurmatsizlik va boshqalar). Erning vajlari mahalliy qozilar tomonidan pedantik sinchkovlik bilan tinglangan, ajralishga ruxsat berilgan. Erning nomaqbul hatti-harakati: xotiniga qoʻpol munosabatda boʻlish, zinokorlik va boshqalar xotin tomonidan ajralish ishini qoʻzgʻatishga olib kelmasdi. Bu Turkistonda ayollarning huquqdan mahrum boʻlgan mavqeining koʻp jihatlaridan biri edi.

Turkiston oʻlkasi, Buxoro va Xiva xonliklari aholisi oʻrtasida ajralishlar keng tarqalmagan holat edi. Mahalliy aholi oʻrtasida nikohning buzilishi koʻpincha shariat koʻrsatmalariga koʻra sodir boʻlgan, ajralish odatda bir tomonlama boʻlgan, ya’ni 10 holatdan 9 tasida erning oʻzboshimchaligiga bogʻliq edi. Erkak asossiz ajralishlardan faqat mumkin boʻlgan moddiy zarar tufayli saqlanib qolgan, chunki ajralish paytida u nikohdan kelib chiqqan koʻchmas mulkning bir qismini ajrashgan xotiniga oʻtkazishi shart edi.

Agar Turkiston oʻlkasida Chor Rossiyasining bostirib kelishiga qadar nikoh va oila masalasiga shariat va odat bilan tartibga solib kelingan boʻlsa, oktyabr toʻntarishi tufayli juda katta ijtimoiy oʻzgarishlar sodir boʻldi. Chor Rossiyasida ham xristian dini qoidalari va cherkov tomonidan amalga oshirib kelingan. Rossiya qonunchiligi fuqarolik nikohini inkor etib, bu jarayonlar Turkistonda istiqomat qilgan ajnabiylarga va boshqa din vakillariga qoʻllanib kelingan. Maxalliy halqlarning nikoh va oila munosabatlari esa, avval qanday boʻlsa shundayligicha qolib ketgan, nizolar qozi va biy sudlari tomonidan koʻrilgan.

Shariat qonuni aholini tabiiy harakatlanish jarayonlarini hisobga olish, bu borada statistika yuritishni hamda aholining yoshi, jinsi, nikohdan oʻtish va uni bekor qilish bilan bogʻliq dalolatnomalar tuzishni qoʻllab-quvvatlamagan. Shu nuqtai-nazardan ta’kidlash joizki, Oʻrta Osiyo hududlarida islom dini qaror topganidan to XX asr boshlariga qadar fuqarolik holatlarini roʻyxatga olishga oid rasmiy ma’lumotlar amalda yoʻq.

XIX asr oʻrtalarida Turkiston xalqlarining aksariyatida ekzogam taqiqlar barham topadi. Natijada otalari avlodi boʻyicha amakivachchalar va opa-singillar, bir avlodga mansub erkaklar va ayollar oʻrtasidagi nikohlar milliy an’anaga aylanadi. Amakivachchalar nikohi tojiklar, oʻzbeklar va turkmanlar orasida keng tarqalgan edi. Tojiklar bunday nikohni shunchalik majburiy deb hisobladilarki, agar qarindoshda munosib amakvachcha boʻlsa (ota amakining oʻgʻli) va qizlarini begonaga berishsa yoki u yerda amakivachcha qiz boʻlsa va ular oʻsha qizni oʻzlariga kelinlikka soʻramasalar, bu qahr-gʻazabning sababi va oilaviy munosabatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin edi. Tarixchi M.S.Andreyevning fikriga koʻra, togʻli tojiklar va Pomir xalqlarida amakivachchalar oʻrtasidagi nikohlar, bu yerlardagidek nikohlarning asosiy ustunligi boʻlib, bu holatda turmush qurganlarning ota-bobolari bitta boʻlib qoladi, hafagarchiliklar boʻlmagan va aksincha, bunday nikohdan juda mamnun boʻlganlar. M.S.Andreyevning guvohlik berishicha, agar qiz akasining yolgʻiz merosxoʻri boʻlsa, aka-

ukalarning bolalari oʻrtasidagi nikoh majburiy deb hisoblangan. [3;521] Togʻ tojiklari begona odamlar bilan turmush qurmaydilar va "koʻpincha opa-singillari – amakivachchalari, ikkinchi amakivachchalari ...otaning va onaning tomonidagilar bilan turmush qurishadi", deb yozgan edi etnograf tarixchi I.I Zarubin.[4;351]

Rossiya imperiyasi tomonidan Oʻrta Osiyo xonliklarini boʻysindirilishi, bu hududlarda tovar-pul munosabatlarining, ayniqsa, kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi patriarxal oilalarning parchalanishida oʻziga xos oʻrin tutgan.[5;22]

Oʻrganilayotgan davrda oila nikoh munosabatlari islom arkonlari asosida yuzaga qoʻyilgan boʻlib, nikohdan oʻtish, oila qurish bilan birga nikohni bekor qilish – ajrashish holatlari shariat qonunlari asosida yuz bergan. Bu jarayonlar oʻsha davr tushunchasidagi sudlar (qozilar) bunday nizolarni odat qoidalari asosida hal etishgan. Bu sudlar (qozilar) nizoli masalalar jamiyatning moʻtabar kishilaridan iborat boʻlgan aʼzolarining bevosita ishtirokida odat qoidalari asosida hal qilinganligini eshitib, qaror toʻgʻriligini tasdiqlashgan. Nikoh tuzilish jarayonlarida islom odatlariga toʻlaligicha amal qilingan va unga boʻysunilgan. Nikohlanuvchilar oʻrtasida oʻziga xos kelishuv shartnoma tuzilgan. Unda bir tomondan shartnoma predmeti boʻlgan – kelin, ikkinchi tomondan sotib oluvchi sifatida – kuyov qatnashgan. Kelinga belgilangan maʼlum bahoni, yaʼni shartnomaning asosiy sharti hisoblangan toʻlov-qalin va mahrni toʻlashdan iborat boʻlgan.[6;725]

Meros bilan bogʻliq munosabatlarda ham oʻzgartirishlar kiritildi. Islom huquqi ayollarga meros olish huquqini berdi, boshqa dinlarda zino boʻyicha faqat ayollar jazolangan boʻlishsa, islom tartiblarida erkaklar zino jinoyati sodir etganligi uchun jazolanishi joriy etildi. 1917 yil oktabrdagi davlat toʻntarishiga qadar ham Turkistonda kelin va kuyov oʻrtasidagi nikoh shartnomasi tuzilgan. Ushbu shartnoma tuzilishi biy va qozilar ishtirokida amalga oshirilgan. Ushbu shartnomada kelin va kuyov (er va xotin) oʻrtasidagi huquq va majburiyatlar, nikohni tugatish tartibi va oqibatlari, ota-ona va farzandlar oldidagi burchlariga amal qilish kabilar aks etgan. Bu tartiblar bugungi kunda amalda boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Oila Kodeksi va Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga mos keladi.

Tadqiq qilinayotgan davrda oila-nikoh munosabatlarida koʻp xotinlik, yaʼni xotin ustiga xotin olish koʻpchilikni hayratlantirmagan, shariat bunga ruxsat bergan. Qalin bilan bogʻliq holatlar ham ikki tomon kelishuvi orqali hal etilgan. Qalin miqdorini belgilashda kuyov tomonning mablagʻi, kelinning husni va holati hisobga olingan. Oxir oqibat tomonlar maʼlum bir miqdorga kelishishgan. Aholi hisobini olish bilan bogʻliq ilk urinishlar Rossiya imperiyasining Oʻrta Osiyoga qilingan bosqinlaridan soʻng Turkiston general-gubernatorligi hududlarida amalga oshirilgan. Ammo yetarli darajada maʼlumotlar toʻplash imkoniyati boʻlmaganligi sababli Turkiston harbiy guberniyasi va uning joylardagi boʻlinmalari tomonidan toʻliq boʻlmagan maʼlumotlar toʻplangan. Shu bois bu maʼlumotlar oʻlkadagi demografik vaziyatga baho berishga yetarli boʻlmagan. Tugʻilish toʻgʻrisidagi, oʻlim, nikohdan oʻtish va ajralish bilan bogʻliq maʼlumotlar aholi yashaydigan juda kam sonli hududlardagina amalga oshirilib, ular ham doimiy xarakter kasb etmagan. Aholini roʻyxatga olish bilan bogʻliq jarayonlarga bir qancha holatlar oʻz taʼsirini oʻtkazgan. Masalan, Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkiston general-gubernatori nomiga viloyat va uyezdlar rahbarlari tomonidan yuborilgan maʼlumotlarda fuqarolik holatlarini roʻyxatga olish jarayonlaridagi turli sabablar koʻrsatiladi. Xususan, Sirdaryo viloyati boshqaruvchisining yozishicha, roʻyxatga olish kitoblari kamdan-kam hollarda yuritilganligi, unda ham ayrim ovul oqsoqollari tomonidan ayrim holatlardagina,

shunda ham toʻliq boʻlmagan yozuvlar haqida maʼlumot beradi. [7;192] 1867 yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, maʼmuriy boshqaruv yoʻlga qoʻyilgach, oʻlka aholisi sonini aniqlash, ularning tabiiy va mexanik harakatlanishi ustidan doimiy hisob yuritishga urinish amalga oshirishga kirishiladi. Ammo mahalliy sharoitlar sababli uzoq vaqtgacha buning uddasidan chiqib boʻlmaydi. Shu tariqa Oʻrta Osiyoda XIX asrning oxiriga qadar ham aholini roʻyxatga olishni amalga oshirib boʻlmaydi.[8;194] Bunga sabab, bizningcha, aholining koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi qismining muqim joyda yashamasligi, qolaversa, mahalliy amaldorlarning ushbu masala bilan shugʻullanishga yuzaki yondoshishlari boʻlgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Oʻrta Osiyoda tugʻilish darajasi toʻgʻrisida ishonchli statistik maʼlumotlar mavjud emas. Faqat XIX asrning 70-yillaridan boshlab, Rossiya maʼmuriyati tugʻilish darajasini baholashga yondashish uchun aylanma yoʻl bilan harakat qila boshladi, ammo bu urinishlar katta muvaffaqiyat keltirmadi. Arxiv hujjatlarida, statistik hisobotlarda va adabiyotlarda tugʻilish darajasining individual baholari mavjud, ammo ular aksariyat hollarda haqiqiy holatni aks ettirmaydi.

Bunga Sirdaryo viloyatida 1870 yilda tugʻilish darajasi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar hisob-kitoblarga misol boʻla oladi. Umuman viloyat boʻyicha har 1000 nafar aholiga tugʻilganlar soni 34,5 tani tashkil etadi, jumladan, Toshkent shahrida 38,8, Qurama uyezdida 30,2, Jizzax uyezdida - 40,6, Xoʻjand uyezdida -37,8, Chimkent uyezdida - 27,7. Shu bilan birga, tugʻilish darajasining boshqa yuqori koʻrsatgichlari mavjud. Shunday qilib, 1868 yilda Semirechen viloyatining uchta okrugidagi mahalliy aholini oʻrganish natijalariga koʻra, 18477 tugʻilish qayd etilgan, tugʻilish darajasi 50 foizni tashkil etgan. A. Bunyakovskiy XIX asrning 70-yillariga oid statistik materiallar va tadqiqotlar tahlili asosida mahalliy aholining tugʻilish darajasi juda yuqoriligi va barcha maʼlum holatlardan oshib ketganligini taʼkidladi.

Turkiston va Rossiyaning mahalliy mintaqalarida aholi koʻpayishining koʻpgina xususiyatlari yaqinligi hamda Rossiyaning Yevropa qismida Turkiston aholisi bilan turmush tarzi, urf-odatlari, diniy-axloqiy jihatidan oʻxshash musulmon aholi guruhlari mavjudligi bilan, Turkiston va Rossiyaning bir qator boshqa viloyatlari aholisi orasida ham shunday tugʻilish koʻrsatgichlarini kutish qonuniydir.

Shu bilan birga, mamlakatning Turkiston va Yevropa qismlari aholisi oʻrtasida mavjud boʻlgan tafovutlarni ham unutmaslik kerak va bu, ehtimol, Turkistonda tugʻilish darajasining Rossiyaning Yevropa qismidagi darajasiga nisbatan pasayishiga olib kelishi kerak boʻlgan farqlarni eʼtiborsiz qoldirmaslik kerak. Xususan, ayollar salomatligining yomonligi, juda erta turmush qurishning koʻpligi va shunga oʻxshash boshqa omillar ayollarni erta bepushtlikka olib kelishi va ularning tabiiy tugʻish qobiliyatini kamaytirishi mumkin edi.

XIX asrning oxiriga qadar Oʻrta Osiyo aholisining oʻlim darajasi deyarli oʻzgarishsiz qolgan boʻlsa ham, Rossiyaning Yevropa qismida uning biroz pasayish tendensiyasi allaqachon mavjud edi. Tugʻilish darajasiga kelsak, hatto Rossiyaning Yevropa qismida ham oʻtgan asrda uning pasayish tendensiyasini aniqlash mumkin emas. Turkistonda bunday pasayishni taxmin qilish qiyin. Nikohning azaliy anʼanalari, ajralish, bolalarga munosabatlar, koʻrib chiqilayotgan davrda hech qanday oʻzgarishlarga duch kelmadi, oilada tugʻilishni nazorat qilish Turkiston xalqlari uchun nomaʼlum boʻlib qoldi va agar bu vaqtda demografik jarayonlarning yangi tendensiyalari paydo boʻlishi mumkin boʻlsa, ular faqat baʼzi bir yaxshilanishlar bilan bogʻliq boʻlishi mumkin edi. Ammo juda oz miqdordagi mahalliy aholining yashash sharoitlari, uning

sogʻligʻi va shuning uchun tugʻilish darajasining pasayishiga emas, balki oʻsishiga olib kelishi mumkin.[9;59]

Shunga qaramasdan Turkistonda ba'zi davrlarda tugʻilishning pasayish holatlari ham koʻzga tashlandi. Bu eng avvalo aholi orasida tarqalgan turli yuqumli kasalliklar hamda tibbiyot xizmatining yaxshi yoʻlga qoʻyilmaganligi oqibatida yuzaga kelgan. Turmush oʻrtoqlar yoshidagi sezilarli farq, ayniqsa koʻpxotinlik nikohlarida, ayollarning erta oʻlimi va emizikli davrning uzoq davom etishi va boshqalar, tugʻilishning kamayishiga salbiy ta'sir koʻrsatishi mumkin boʻlgan omillardir. Shunday qilib, Turkistonda tugʻilish darajasi yuqori boʻlsa-da, lekin turmush darajasi mamlakatning Yevropa qismidagidan bir oz pastroq edi.

XIX asr oxirlarida imperiya statistika qoʻmitasi erkin iqtisodiy jamiyatning asosan Turkiston oʻlkasidagi demografik hisoblarning holati toʻgʻrisida berilgan ma'lumotida Sirdaryo viloyatida 1894-1896 yillar boʻyicha shaharlar va uyezdlardagi mavjud holat toʻgʻrisida aniq ma'lumot bera olmasligini, chunki, bunday raqamlar mavjud emasligi ta'kidlanadi: viloyat yuborayotgan va undan olinayotgan ma'lumotlar toʻgʻrisida qoʻmita hech qanday ma'lumotga ega emas va koʻchmanchi turmush tarziga asoslangan aholi haqida bunday ma'lumot olishning imkoniyati ham yoʻq. Koʻrinib turibdiki, Rossiya ma'muriyati oʻlka aholisi haqida ma'lumotlar toʻplash, miqdorini aniqlash borasida harakatlar qilgan. Ammo mavjud ob'yektiv va sub'yektiv sabablar bunday imkoniyatni bermagan.

Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan hududlarda (Buxoro amirligiga qarashli) tashkil etilgan Zarafshon okrugining tarkibiga kirgan Panjikent, Kattaqoʻrgʻon va Samarqand ma'muriy boʻlinmalari aholisi tarkibi tahlil etilib, har bir hovlida yashovchilar soni oʻrtacha 5 kishidan hisoblanib, 1871 yilga koʻra okrug aholisining umumiy soni 280,9 ming kishi deb belgilangan. [10;195] Bu raqamlar taxminiy hisob-kitob boʻlib, rasman mahalliy musulmon aholi roʻyxatga olinmagan, har bir hovlida yashovchi aholi sonining oʻrtacha hisobdan kelib chiqqan.

Oʻrta Osiyo aholisi 1865-1900 yillar orasida oʻsish koʻrsatgichi ustuvorlik qilgan. Bu oʻsish tabiiy – ya'ni tugʻilish hisobiga boʻlgan. Ammo yuqorida qayd etganimizdek, fuqarolik holatlari dalolatnomalarini roʻyxatga olish yoʻlga qoʻyilmaganligi sababli raqamlar xonadon va oila a'zolarining oʻrtacha sonidan kelib chiqib belgilanib, shundan umumiy raqamlar olingan. Mexanik oʻsish katta ahamiyat kasb etmagan. Rossiya ichki guberniyalaridan koʻchib keluvchilar bu davrda asosan harbiylardan iborat boʻlib, ular aksariyat holda yirik shaharlar va mustahkamlangan manzilgohlarda joylashishgan. Bunday statistik ma'lumotlar Oʻzbekiston milliy arxivi fondida koʻplab uchraydi.

Turkiston hududlari boʻysundirilganidan keyin aholini dastlabki rasmiy roʻyxatga olish tadbiri – Butunrossiya aholini roʻyxatga olish 1897 yilda tashkil etilgan. Roʻyxatga olish Fargʻona, Samarqand, Sirdaryo, Kaspiyorti va Yettisuv viloyatlarida oʻtkazilgan. Ammo bu ham aholi sonini aniqlashning toʻliq imkonini bermagan, asosan rus aholisi hisobga olinib, mahalliy aholi esa oilalar va xonadonlardagilarning oʻrtacha soni hisobidan olingan. Tugʻilish boʻyicha ma'lumotlar ham shu asosida shakllantirilgan.

Xullas, Turkiston oʻlkasida tugʻilish va oʻlim toʻgʻrisidagi statistika tizimli ravishda yoʻlga qoʻyish imkoni boʻlmagan. Buning sabablari yuqorida keltirib oʻtilgan, ya'ni mahalliy aholi odati va turmush tarzi tufayli ayrim muammolar kelib chiqqan. Shunga qaramay, Rossiya imperiyasi oʻlka ma'muriyati mahalliy aholi orasida tugʻilish holatlarini qayd etish tizimini yoʻlga qoʻyishga harakat qiladi.

Oʻrta Osiyo aholisi orasida tugʻilish yuqori darajada boʻlgan, bunga ayollar orasida nikohdan oʻtishning yuqori koʻrsatgichi va erta nikoh hisoblanadi. Nikohsiz bola tugʻilishi ehtimoli bu yerda amalda nolga teng edi. Tugʻilishni nazorat qilish va tartibga solish amalda yoʻq edi. Turkiston oʻlkasida XIX asrning ikkinchi yarmiga oid tugʻilish holati toʻgʻrisida statistika olib borilmagan, buning imkoni ham yoʻq edi. Rus maʼmuriyati tomonidan XIX asrning 70-yillarida tugʻilish holatlari haqida maʼlumotlar toʻplash va holatini baholashga urinishlar boʻlgan, ammo ular natija bermagan.

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning butun majmuasining demografik jarayonlarning borishiga salbiy taʼsiri juda yuqori tugʻilish va oʻlim koʻrsatkichlari bilan tez avlod oʻzgarishida, aholining nisbatan sekin tabiiy oʻsishida, erkaklar populyasiyasining ayollar populyasiyasidan ustunligi nomutanosibligida sezilarli namoyon boʻldi. Odamlarning demografik xulq-atvori patriarxal oilaviy munosabatlar, ayollarning tengsiz pozisiyasi bilan chambarchas bogʻliq edi. Rossiya tomonidan Turkistonning bosib olinishi maʼlum maʼnoda aholi sonining koʻpayishi sohasida juda arzimagan boʻlsa-da, bir qancha oʻzgarishlarning boshlanishi edi. Biroq chorizmning mustamlakachilik siyosati shafqatsiz feodal ekspluatasiyasi bilan qoʻshilib Turkiston oʻlkasida demografik farovonlik muhitini yaratishga yordam bermadi. Bizningcha, XIX asrning ikkinchi yarmida Oʻrta Osiyoda demografik jarayonlarda siljishlar boshlangani haqida gapirishga asos yoʻq.

Ayrim arxiv hujjatlarida, statistik hisobotlarda tugʻilish holatlari bilan bogʻliq baʼzi maʼlumotlarnigina olish mumkin boʻladi. Masalan, 1870 yil Sirdaryo viloyatiga tegishli maʼlumotlarga koʻra, viloyat boʻyicha har ming aholiga nisbatan tugʻilish – 34,5 ta, shu jumladan, Toshkent shahri boʻyicha – 38,8ta, Qurama uyezdi boʻyicha – 30,2 ta, Jizzax uyezdi – 40,6 ta, Xoʻjand uyezdi boʻyicha – 37,8 ta, Chimkent uyezdi boʻyicha – 27,7 ta ni tashkil etadi.[`11;50]

Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini roʻyxatga olish organlari vazifalaridan biri oʻlim bilan bogʻliq holatlarni qayd etish ham hisoblanadi. Ammo mamlakatimiz hududlarida islomga qadar ham, undan keyingi davrlarda ham bunday tizim ishlamagan.

Turkiston oʻlkasida Chor Rossiyasi hukmronligi davrida oʻlim bilan bogʻliq statistika yuritishga urinishlar boʻlgan. Oʻlim sabablari aniqlashtirilgan. Chunki oʻlim va uning sabablari turlicha boʻlishi mumkin. Aksariyat hollarda mahalliy aholi orasida sodir boʻlayotgan oʻlim holatlariga turli yuqumli kasalliklar, aholi turmush tarzida hukmron boʻlgan feodal tartiblarning saqlanib qolishi oqibati hayot sharoitining yomonligi, kabi holatlar bilan izohlangan.

Turkistonda shoʻro hokimiyati oʻrnatilgunga qadar ham oʻlim holatlari toʻgʻrisida aniq bir statistika yuritilmagan. Demak, oʻlim holatlari bilan bogʻliq statistika ham amalda mavjud emas edi.

Oʻrta Osiyoda demografik vaziyat bilan bogʻliq jarayonlarning yana bir muhim jihatlaridan biri erta yoshdagi nikoh sanaladi. Ota-onalar farzandlarini ertaroq uylantirish yoki turmushga berishga harakat qilishgan. Nikoh yoshining belgilanishi bilan bogʻliq maʼlumotlar yuqorida keltirilgandi. Islom dini shariat qonuniga koʻra, koʻpxotinlik man etilmagan. Ammo poligam oilalar soni uncha koʻp uchramaydi. Bu odatda moliyaviy holatlar bilan bogʻliq boʻlib, hamma ham bunga jazm qilavermagan.

**Xulosa.** Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, shunday qilib, Turkiston hududlarida oila-nikoh munosabatlari oʻziga xos tarixga ega boʻlib, ijtimoiy hayotning turli bosqichlarida turlicha

koʻrinishda namoyon boʻlib kelgan. Oila-nikoh munosabatlari rivojining oʻziga xos jihatlarining rivojida mamlakatimiz hududlarida oʻz vaqtida turli qabilalar, etnik birlik va guruhlarning istiqomat qilganligi ham muhim rol oʻynagan. Bundan tashqari, turli dinlar va ularga e'tiqod qiluvchi guruhlarning mavjudligi ham, albatta, oila-nikoh munosabatlarining rivojiga oʻz ta'sirini koʻrsatgan. Islom dini va shariat qonunlari oila-nikoh munosabatlarining rivojiga ijobiy ta'sir koʻrsatgan. Nikoh, nikoh munosabatlari, farzand koʻrish – oila munosabatlarining alohida ahamiyatli jihatiga aylantirdi.

Ammo demografik jarayonlar, ularni tartibli tarzda yoʻlga qoʻyish bilan bogʻliq muammolar bartaraf etilmadi. Shu bilan birga asrlar davomida shakllangan odat aholi orasida oila-nikoh munosabatlarida ayrim hollarda shariatga zid boʻlsada saqlanib qolganligini koʻrishimiz mumkin. Umuman olganda, aholini roʻyxatga olish muayyan vaqt ichida mamlakatdagi barcha shaxslarga taalluqli demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotni toʻplash, birlashtirish, baholash, tahlil qilish va tarqatish jarayonidir. U aholi toʻgʻrisidagi eng ishonchli manba hisoblanadi. Shu bois bu tadbirni amalga oshirish mamlakat rivojini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat rivojlanishi, tovar-pul munosabatlarining qaror topishi, feodal tartiblarning yemirilishi demografik vaziyat bilan bogʻliq ayrim muammolar va toʻsiqlarni bartaraf etilishini talab qiladi. Jumladan, aholi statistikasi, tugʻilish, oʻlim, nikoh, nikohni bekor qilish kabi fuqarolik munosabatlarida qat'iy statistikaga ehtiyoj kuchaydi. Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, Rossiya bosqiniga qadar va mustamlaka sharoitida ham Turkiston aholisining koʻpayishi feodal ishlab chiqarish munosabatlari ustun darajadagi jamiyatlarga xos boʻlgan barcha asosiy xususiyatlarga ega edi, odamlarning hayoti va turmushi esa an'anaviy institutlar va diniy axloq doirasi bilan belgilanar edi.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Снесарев Г.П. О некоторых причинах сохранения религиозно-бытовых пережитков у узбеков Хорезма. / СЭ, 1957. – №2, -С. 67. (Snesarev G.P. About some reasons for the preservation of religious and everyday remnants among the Uzbeks of Khorezm. / SE, 1957. – No. 2, - P.67.)
2. Гребенкин А. Д Узбеки. / Сборник. Русский Туркестан, 11. – Москва. 1872. – С.62. (Grebenkin A.D. Uzbeks. / Collection. Russian Turkestan, 11. – Moscow. 1872. – P.62.)
3. Материалы к изучению культуры и быта таджиков. (Институт истории, археологии и этнографии АН Таджикской ССР)]; Вып. 2. Подготовка к печати, примеч. и доп. А. К. Писарчик. 1958. – С. 521. (Materials for the study of the culture and life of Tajiks. (Institute of History, Archeology and Ethnography of the Academy of Sciences of the Tajik SSR)]; Vol. 2. Preparation for printing, note. and additional A.K. Pisarchik. 1958. – P. 521.)
4. Зарубин И.И. Отчет об этнологических работах в Средней Азии летом 1926 года // *Известия Академии наук СССР. VI серия.*Москва, 1927. – С.351-360. (Zarubin I.I. Report on ethnological work in Central Asia in the summer of 1926 // News of the USSR Academy of Sciences. VI series. Moscow, 1927. – P.351-360.)
5. Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. – Ленинград, 1969. – С.22. (Kislyakov N.A. Essays on the history of family and marriage among the peoples of Central Asia and Kazakhstan. – Leningrad, 1969. – P.22.)
6. Burxoniddin Margʻinoniy. Hidoya, 1-jild. Nikoh kitobi. – Toshkent: Adolat, 2002. – B.725. (Burkhaniddin Marginani. Hidayah, Volume 1. Marriage book. - Tashkent: Adolat, 2002. - P.725.)

7. Карахонов М. Источники изучения демографической истории Средней Азии, Брачность, рождаемость, смертность в России и в СССР. Сборник статьей. – Москва: Статистика, 1977. – С. 192. (Karahonov M. Sources for studying the demographic history of Central Asia, Marriage rates, fertility, mortality in Russia and the USSR. Collection of articles. – Moscow: Statistics, 1977. – P. 192.)
8. Карахонов М.К. Источники изучения демографической истории Средней Азии. Брачность, рождаемость, смертность в России и в СССР. Сборник статьей. – Москва: Статистика, 1977. – С.194 . (Karahonov M.K. Sources for studying the demographic history of Central Asia. Marriage rate, birth rate, mortality rate in Russia and the USSR. Collection of articles. – Moscow: Statistics, 1977. – P. 194.)
9. Bunyakovskiy A. Turkiston oʻlkasining maydoni va aholisi haqida. Turkiston kolleksiyasi. 1872,- B.59. (Buniakovsky A. About the territory and population of Turkestan. Turkestan collection. 1872,- P.59.)
10. Карахонов М.К. Источники изучения демографической истории Средней Азии, Брачность, рождаемость, смертность в России и в СССР. Сборник статьей. – Москва: Статистика, 1977. – С. 195.( Karahonov M.K. Sources for studying the demographic history of Central Asia, Marriage rates, fertility, mortality in Russia and the USSR. Collection of articles. – Moscow: Statistics, 1977. – P. 195.)
11. Терентьев М.А. Статистические очерки Среднеазиатской России, очерк III, Приложение №4, Движение населения. Сирдаринской области за 1870 г. СПб, 1874. – С.50. (Terentyev M.A. Statistical essays on Central Asian Russia, essay III, Appendix No. 4, Population movement. Sirdara region for 1870. St. Petersburg, 1874. – P.50.)

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/3(4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).